

IKKI QARDOSH MAMLAKAT O‘RTASIDAGI DO‘STLIK, O‘ZARO ISHONCH VA STRATEGIK SHERIKLIKNI MUSTAHKAMLASH YO‘LIDA MUHIM QADAM

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov 16-17-noyabr kunlari davlat tashrifi bilan mamlakatimizda bo‘ldi.



Ko‘ksaroy qarorgohida 17-noyabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedovning tor doiradagi muzokaralari bo‘lib o‘tdi.

O‘zbekiston va Turkmaniston aloqalari tarixiy qardoshlik va madaniy yaqinlik an‘analarga suyanagan holda shakllangan.

Ikki xalq orasidagi qalb ochiqligi va o‘zaro hurmat har doim sezilib turadi. Bu, xususan, davlatlararo siyosatda, chegara hududlaridagi oddiy odamlarning kundalik muloqotida, bir-birini qo‘llab-quvvatlash madaniyatida yaqqol namoyon bo‘ladi.

So‘nggi yillarda ijobiy dinamika yanada jonlandi. Shunchaki raqamlar yoki rasmiy

ko‘rsatkichlar emas ikki mamlakatning manfaatlari mushtarakligi ifoda etilmoqda. Savdo aylanmasi jadal o‘shishi, qo‘shma loyihalar ko‘payishi, transport va logistika yo‘nalishlarining faol rivojlanishi o‘zaro ishonch va ochiqlikning amaliyotdagi aksidir.

Bir so‘z bilan aytganda, O‘zbekiston va Turkmaniston munosabatlari Markaziy

Osiyoda barqarorlik, yaqinlik va birdamlikni ta‘minlovchi muhim tayanch nuqtalardan biriga aylanib bormoqda.

Ushbu davlat tashrifi so‘nggi yillarda namunali tus olgan O‘zbekiston — Turkmaniston do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik va strategik sheriklik munosabatlarini yanada kengaytirishning dolzarb masalalari muhokama qilindi.

Savdo, transport, energetika, suv xo‘jaligi va boshqa muhim sohalarida amalga oshirilgan ishlarga yuqori baho berildi.

— Shubhasiz, ushbu yutuqlarda Turkmaniston Xalq Maslahati Raisi, hurmatli Gurbanguli Berdimuhamedovning ulkan hisssasi bor, — dedi Prezidentimiz.

Keyingi yillarda o‘zaro savdo hajmi ikki baravarga ko‘payib, 1 milliard dollardan oshdi. Mahsulotlar turini kengaytirish va erkin savdo rejimidan samarali foydalanish orqali bu ko‘rsatkichni 2 milliard dollarga yetkazish uchun barcha imkoniyatlar mavjudligi ta‘kidlandi.

O‘tgan yili tovar ayirboshlash hajmi oshdi. Yuk tashish ortib bormoqda, jumladan, Turkmanboshi portidan foydalanish faollashgan.

Muzokaralarda o‘zaro savdoni ko‘paytirish va sanoat, energetika, transport, mashinasozlik, qishloq va suv xo‘jaligi sohalarida samarali kooperatsiyani rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratildi.

Hududlararo almashinuvlarni yanada kengaytirish muhimligi ta‘kidlandi. Xiva shahrida uchinchi Hududlar forumini o‘tkazishga kelishib olindi.

Mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga molik masalalar yuzasidan ham fikr almashildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedovning muzokaralari kengaytirilgan tarkibda ikki mamlakat rasmiy delegatsiyalari ishtirokida davom etdi.

Uchrashuv avvalida mamlakatimiz yetakchisi Turkmaniston Prezidentining davlat tashrifi ikki xalq o‘rtasidagi ko‘p asrlik

do‘stlik va yaxshi qo‘shnichilik rishtalari mustahkamligining yaqqol tasdiqi ekanini ta‘kidladi.

O‘zbekiston — Turkmaniston do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik va strategik sheriklik munosabatlarini yanada kengaytirishning dolzarb masalalari muhokama qilindi.

Savdo, transport, energetika, suv xo‘jaligi va boshqa muhim sohalarida amalga oshirilgan ishlarga yuqori baho berildi.

— Shubhasiz, ushbu yutuqlarda Turkmaniston Xalq Maslahati Raisi, hurmatli Gurbanguli Berdimuhamedovning ulkan hisssasi bor, — dedi Prezidentimiz.

Keyingi yillarda o‘zaro savdo hajmi ikki baravarga ko‘payib, 1 milliard dollardan oshdi. Mahsulotlar turini kengaytirish va erkin savdo rejimidan samarali foydalanish orqali bu ko‘rsatkichni 2 milliard dollarga yetkazish uchun barcha imkoniyatlar mavjudligi ta‘kidlandi.

“Shovot-Toshhovuz” chegaraoildi savdo zonasining ishga tushirilishi ham tovar ayirboshlashni ko‘paytirishga xizmat qiladi. Ushbu tajribani boshqa manzillarda, birinchi navbatda, “Olot-Farab” hududida qo‘llash bo‘yicha kelishuvga erishildi.

Sanoat kooperatsiyasini kengaytirish maqsadida qurilish materiallari, farmatsevtika, oziq-ovqat mahsulotlari va boshqa talab yuqori bo‘lgan tovarlar ishlab chiqarishga qaratilgan yangi loyihalarga biznesni faol jalb qilish muhimligi ta‘kidlandi.

Energetika sohasida samarali va o‘zaro manfaatli hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan. Yanada kengroq loyihalarga o‘tish, shu jumladan, istiqbolli konlarni birgalikda o‘zlashtirishga kelishib olindi.

Transport sohasi ikki mamlakat iqtisodiyotlarini bog‘laydigan muhim bo‘g‘in hisoblanadi. Yuk tashish hajmi o‘sib bormoqda, bojxona-logistika tartiblari

soddalashtirilmoqda. Tomonlar Turkmanboshi portini birgalikda rivojlantirish va poytaxtlar o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri aviaqatnovlarni qayta tiklashga kelishib oldilar.

Erishilgan kelishuvlarning o‘z vaqtida amalga oshirilishini ta‘minlash uchun yil oxirigacha Hukumatlararo komissiya va Ishbilarmonlar kengashining navbatdagi yig‘ilishlari o‘tkazildi.

Yetakchilar gumanitar soha ko‘p qirrali aloqalarning mustahkam poydevori ekanligiga urg‘u berdilar.

Hamkorlik sur‘atini saqlab qolish uchun tomonlar o‘zaro konsertlar va teatrlarning ijodiy safarlarini muntazam ravishda o‘tkazish, Xivada Yoshlar forumini tashkil etish va birgalikda filmlar ishlab chiqarish amaliyotini davom ettirishga kelishib oldilar.

Sog‘liqni saqlash va tibbiyot fani borasidagi almashinuvlar faollashadi.

Muzokaralar yakunida davlat rahbarlari erishilgan barcha kelishuvlarni amalga oshirish bo‘yicha keng qamrovli “yo‘l xaritasi”ni qabul qilish yuzasidan mas‘ullarga topshiriq berdilar.

Oliy darajadagi muzokaralardan so‘ng O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov “Shovot-Toshhovuz” qo‘shma chegaraoildi savdo zonasini ishga tushirish marosimida ishtirok etdilar.

Mazkur hududda direksiya, bojxona, karantin, fitosanitariya va veterinariya xizmatlarining ma‘muriy binolari, savdo pavilyoni va omborlar joylashgan.

Bu yerda “yagona darcha” tamoyili asosida davlat xizmatlari ko‘rsatiladi, interfaol tizimlar, bank, tibbiyot va mehmonxona xizmatlari uchun zarur infratuzilma, shuningdek, katta avtoturargoh ham tashkil etilgan.

Davomi 2-betda

AGRAR SOHANI RIVOJLANTIRISH BO‘YICHA TAKLIFLAR MUHOKAMA QILINDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 17-noyabr kuni paxtachilikda samaradorlikni ilg‘or tajriba va texnologiyalar asosida oshirish, qishloq xo‘jaligini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha takliflar taqdimoti bilan tanishdi.

Qishloq xo‘jaligi mamlakatimiz iqtisodiyotida muhim o‘rin egallaydi. Sohaning iqtisodiyotdagi ulushi 20 foizni tashkil etmoqda, unda yiliga 467 trillion so‘mlik mahsulot yaratilmoqda, 3,5 million kishi mehnat qilmoqda. Shu bilan birga, yangi va qayta ishlangan agrar mahsulotlar umumiy eksportning uchdan bir qismini ta‘minlamogda.

Taqdimotda paxtachilikda hosildorlikni oshirish masalalari atroflicha ko‘rib chiqildi. Buning uchun past hosil olayotgan fermerlar bilan manzilli ishlash, ilg‘or agrotehnologiyalar va oziqlantirish amaliyotlarini to‘g‘ri joriy etish, agronom tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish choralari belgilab olindi.

Jumladan, paxtachilikda ustoz-shogird an‘analarni yo‘lga qo‘yish orqali hosildorlikni 60 sentnerdan oshirgan ilg‘or fermerlarni 30 sentnerdan kam hosil olgan fermerlarga birlashtirish taklif qilindi.

Ilg‘or fermerlar Qishloq xo‘jaligi malaka oshirish institutida qayta tayyorlanib, ularga sertifikat beriladi. Past hosil olgan fermerlarda hosildorlik kamida 50 sentnerdan oshsa, ularga birlashtirilgan ilg‘or fermerlarga 5 million so‘mдан mukofot puli beriladi.

Agronomlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish maqsadida Agrar universitet va sohada agronomlarni tayyorlaydigan boshqa oliygo‘hlar bitiruvchilari uchun ikki yillik “dual ta‘lim” mexanizmi joriy etiladi. Ilg‘or klaster va fermer xo‘jaliklarida amaliyot o‘tagan talabalarga stipendiya, ularni o‘qitgan mutaxassislarga esa rag‘bat puli to‘lanadi.

Taqdimotda mahalliy paxta navlarini yaratish ishlari ham alohida ko‘rib chiqildi.

Yurtimizda paxtachilik bo‘yicha ikkita noyob ilmiy institut — Genomika va bioinformatika markazi va Paxtachilik instituti

borligi, lekin ularning imkoniyati to‘liq ishga solinmayotgani ko‘rsatib o‘tildi.

Navlarni seleksiya qilish asosida paxta urug‘chiligi yanada rivojlantirish maqsadida ushbu institutlarda fitotron va reproduksion issiqxona qurib berish topshirildi. Natijada yangi mahalliy nav yaratishga kerak bo‘lgan vaqt 2,5 barobar qisqaradi, olimlarning ishi tezlashib, import urug‘ga ehtiyoj qolmaydi.

G‘o‘zani plyonka ostiga ekish tajribasini ommalashtirish rejalari ko‘rib chiqildi.

Prezidentimiz sohada agrodronlardan foydalanishni kengaytirish, bu borada mutaxassislarni tayyorlash muhimligini ko‘rsatib o‘tdi.

Qishloq xo‘jaligiga sun‘iy intellekt va raqamli texnologiyalarni joriy etish masalasi ham kun tartibida bo‘ldi. Hozirda Qishloq xo‘jaligi vazirligi va xorijiy kompaniyalar hamkorligida bu borada kadrlar tayyorlash va ilmiy infratuzilma yaratish bo‘yicha qilinayotgan ishlar to‘g‘risida ma‘lumot berildi.

Moliyaviy qo‘llab-quvvatlash masalalari ham muhokama qilindi.

2026-yildan paxta-g‘alla, mevalar va dukkakli ekinlar bo‘yicha hosilni ixtiyoriy sug‘urtalash tizimini yo‘lga qo‘yish, sug‘urta mukofotining 50 foizini byudjetdan qoplab berish taklif qilindi.

Subsidiyalar tizimini soddalashtirish maqsadida hozirda turli idoralar tomonidan berilayotgan 75 turdagi subsidiyani yagona platforma orqali ajratib boradigan Agrar sohada to‘lov agentligini tashkil etish tashabbusi bildirildi. Bu fermerlar uchun ortiqcha ovoragarchilik va byurokratiyani keskin kamaytiradi.

Prezidentimiz takliflarni ma‘qullab, mutasaddilarga tegishli topshiriqlar berdi.

O‘za

Kun mavzusi

MARKAZIY OSIYO TONGLARI OTDI

YANGI MARKAZIY OSIYO FENOMENI

TINCHLIK, BARQAROR TARAQQIYOT ASOSI

Dunyo miqyosida geosiyosiy va iqtisodiy o‘zgarishlar shiddat bilan yuz berayotgan, turli tahlalkalar kuchayib borayotgan bir paytda har bir davlat barqaror rivojlanishni ta‘minlash uchun o‘ziga xos yo‘l izlashi tabiiy. Bu borada O‘zbekiston yuritayotgan tashqi siyosat alohida e‘tiborga sazovor. Bu siyosat pragmatizm, ochiqlik va o‘zaro manfaatli hamkorlik prinsiplariga asoslangan. Shu bois, keyingi yillar yurтимiz tashqi siyosati uchun samarali va faol kechypati.

Prezidentimiz raisligida Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Toshkentda bo‘lib o‘tgan yettinchi Maslahat uchrashuvi bunga yaqqol misol. Zero, butun dunyo jamoatchiligi e‘tiborini Toshkentga qaratgan mazkur nufuzli muloqotda mintaqaning yangi taraqqiyot davriga tamol toshi qo‘yildi, desak aslo mubolag‘a bo‘lmaydi. Davlatimiz rahbari ta‘biri bilan aytganda, “Bugungi kunda Markaziy Osiyo — bu barqaror o‘shish va farovonlik uchun oldimizda yangi imkoniyatlar ochayotgan jadal taraqqiyot va samarali hamkorlik makonidir. Mintaqamiz jahon iqtisodiyotiga faol integratsiyalashmoqda: investitsiyaviy jozibadorlik oshmoqda, uchinchi bozorlarga eksport imkoniyatlari kengaymoqda, tranzit salohiyati o‘smoqda”.

Nafaqat O‘zbekiston, balki butun mintaqat tinchligi, barqaror taraqqiyoti yo‘lida Markaziy Osiyoda mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlik konsepsiyasi, O‘zabayjonni ushbu formatga to‘la huquqli a‘zo sifatida qo‘shish kabi tarixiy qarorlar qabul qilingan muloqot ahamiyatini alohida qayd etgan holda, hozir boshqa bir xusus — davlatimiz rahbarining “Markaziy Osiyo yangi davr ostonasida” maqolasi haqida fikr yuritmoqchimiz. BMT Bosh kotibi e‘tirof etganidek, bugun Markaziy Osiyo tajribasi ko‘p mintaqalarga namunadir, maqolada esa ana shu e‘tirofga sazovor bo‘lgan jihatlar alohida e‘tibor qaratilgan.

Assalom, yengilmas el o‘g‘lonlari, Olovli isyonim — Bilga xoqonim. Tunyquq, Kultegin — mard sultonlarim, Tarixga qilich-la bitik dostonim. “Toshkent ko‘rgan”larning turtinmas oti, Markaziy Osiyo tonglari otdi.

Chin do‘stim qirg‘izim, qozoq bovorim, Tojigim, turkmanim jonga tovorim. Jon ozarbayjonim ko‘zimga nurim, Tuganmas dostonim, she‘rim, shuurim. Toshkent bu — do‘stlarning baxt mukofoti, Markaziy Osiyo tonglari otdi.

Assalom, yorug‘ yuz mard sardorlarim, Ahdga sodiqlarim, gavhardorlarim. Alpomish, Shiroqdan xabardorlarim, Siyovush siyoqlim madadkorlarim. Toshkentda bitildi haqiqat xati, Markaziy Osiyo tonglari otdi.

Birlashdik, tog‘u tosh, cho‘llar ochildi, Qo‘lni qo‘lga berdik, yo‘llar ochildi. Muzlarni sindirib gullar ochildi, Yuraklar so‘zlardi, dillar ochildi. “Toshkent ko‘rgan”larning so‘nmas shiddati, Markaziy Osiyo tonglari otdi.

Birlashdik, ayozlar sindira olmas, Birlashdik, xazonlar tindira olmas. Birlashdik, oraga yov kira olmas, Tutash tomlarlarni sug‘ura olmas. Toshkent sammitining qo‘shdir qanoti, Markaziy Osiyo tonglari otdi.

Zulfiya MO‘MINOVA, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi, “Ma‘rifat” targ‘ibotchilar jamiyati a‘zosi

Davomi 3-betda



YANGI MARKAZIY OSIYO FENOMENI

TINCHLIK, BARQAROR TARAQQIYOT ASOSI



Ismoil SAIFNAZAROV,
falsafa fanlari doktori,
professor

Boshlanishi 1-betda

Jumladan, maqolada strategik qarash, tarixiy realizm va ishonch, o'zaro hurmat hamda pragmatizmga asoslangan zamonaviy siyosiy madaniyat uyg'unligi namoyon bo'ladi. Markaziy Osiyo tom ma'noda barqaror rivojlanish, mintaqaviy jipslashuv va xalqaro subyektilikning yangi davriga qadam qo'ydi. Mintaqa davlatlari o'z ta'minot zanjirlari — sanoat zonalar, qo'shma GES va energetika tizimlari, transport yo'laklari va logistika klasterlarini shakllantirmoqda. Transaf'g'on temir yo'li, Shimol — Janub va O'rta yo'laklari, sanoat kooperatsiyasi bo'yicha xalqaro markazlar tashkil etish, chegara tartib-taomillarini soddalashtirish alohida ahamiyatga ega.

Mintaqamizda shakllanib borayotgan o'zaro ishonch, yaxshi qo'shniçilik va hurmat muhiti, tobora jipslashib, birlashayotganimiz hodisasi, maqolada qayd etilganidek, "Bu — o'z-o'zidan paydo bo'lib qolgan jarayon emas, balki umumiy

oqimlarini raqamlashtirish va Yevropa hamda Hind — Tinch okeani mintaqasi bilan to'g'ridan to'g'ri bog'lanish uchun hamkorlikni yo'lga qo'ydi. O'rta yo'lak allaqachon oddiy savdo yo'nalishi bo'lishdan to'xtagan — u suverenitet yo'lagiga, o'rta davlatlar infratuzilmani strategik vosita sifatida qanday ishlatishi mumkinligi ramziga aylanmoqda. Bu hayratlanarli transformatsiya ko'p tomonlamalikning kengroq evolyutsiyasini aks ettiradi.

Mintaqani turli mamlakatlar bilan bog'lovchi ko'plab hamkorlik formatlari, masalan, "C5+1" tufayli mintaqada davlatlari an'anaviy ko'p tomonlamalikdan foydalanish imkonini beruvchi noyob o'zaro aloqa mexanizmlarini yaratdi.

Turkiy davlatlar tashkilotiga a'zolik Markaziy Osiyoni madaniy diplomatiya va savdo orqali G'arb bilan bog'laydi. Boshqa platformalar esa, aksincha, mintaqaning Xitoy va Rossiya bilan aloqalarini mustahkamlaydi. Masalan, Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi va Shanxay hamkorlik tashkiloti mintaqaning Global janub bilan aloqalarini mustahkamlaydi. Aniqroq aytganda, Markaziy Osiyo Sharq va G'arbi, Shimol va Janubni bir-biri bilan bog'laydigan darvozaga aylandi.

Biz strategik voyaga yetish davriga kirib bormoqdamiz, bunda kuch tarmoqlar, hamkorliklar va siyosiy ishonch orqali shakllanadi. Bu Markaziy Osiyo mamlakatlarini kelajakdagi jahon tartibining asosiy elementlariga aylantiradi.

Maqolada muhim faktlar batafsil aks ettirilgan: mintaqada ilk bor tashqi kuchlar tomonidan yagona siyosiy subyekt sifatida qabul qilina boshlandi. O'ndan ortiq platforma mavjud, ular davlat rahbarlari, hukumatlararo mexanizmlar va aniq tarmoq loyihalari darajasiga ko'tarilgan. Bu Markaziy Osiyoning mustaqil geosiyosiy markaz sifatida e'tirof etilishini anglatadi. Prezidentimizning maqolada keltirilgan strategik ahamiyatga ega g'oyalari Markaziy Osiyo davlatlari uchun mintaqaviy milliy suverenitetni mustahkamlaydi, mamlakatlarning teng huquqliligini kafolatlaydi, energetika hamda suv sohasidagi qo'shma loyihalarni amalga oshirish, yoshlar uchun ilm-



Prezidentimiz tashabbusi bilan yangi mintaqaviy o'ziga xoslik shakllanmoqda. Markaziy Osiyo mintaqasi tinchlik va farovonlikning yangi davri ostonasida turibdi. O'zbekistonning bu jarayondagi rolini butun dunyo diqqat bilan kuzatmoqda.

yuzaga kelayotgan muammolarga munosib yechim topish, siyosiy va iqtisodiy strategiyalarni yangilashga majbur etyapti.

Mana shunday murakkab bir vaziyatda Markaziy Osiyo davlatlari, ayniqsa, O'zbekiston Prezidenti tashqi siyosatda pragmatizm falsafasiga asoslangan eng maqbul yo'lni davom ettirmoqda, bunda asosiy maqsad keskinlashuvlarning oldini olish, barqarorlikni ta'minlashga hissa qo'shish va o'zaro manfaatli munosabatlarni formatini topishdir. Shubhasiz, bu masalalar O'zbekiston tashqi diplomatiyasi kun tartibida doimo dolzarb.

So'nggi yillarda davlatimiz rahbarining qat'iy siyosiy irodasi tufayli mintaqada davlatlari bilan do'stona aloqalar yangi bosqichga ko'tarildi. Jahon siyosatida "Markaziy Osiyo ruhi" va "Markaziy Osiyo qiyofasi" kabi tushuncha hamda voqe'liklar paydo bo'ldi. Mintaqada ishonch va sheriklikning yangi darajasiga erishilgani jadal o'zgarishlarga jo'shin sur'at bag'ishladi. Joriy yil mart oyida O'zbekiston, Qirg'iziston va Tojikiston chegaralari tutashgan nuqtada "Do'stlik" stelasini o'rnatilgan tobora mustahkamlanib borayotgan yaxshi qo'shniçilik va strategik sheriklik munosabatlarning yana bir tasdiq'i bo'ldi.

Bugungi kunda "Yangi Markaziy Osiyo" konsepsiyasi real voqe'likka aylanmoqda, mintaqada yagona transport-logistika makoni shakllanmoqda. Mintaqamiz jadal rivojlanib, iqtisodiy o'sish va investitsiyaviy faollik markazi sifatida namoyon bo'lmoqda. Markaziy Osiyo olamshumul tarixiy imkoniyatlardan foydalanib, yaxshi qo'shniçilik va xavfsizlik, o'zaro manfaatli hamkorlik va barqaror taraqqiyot makoniga aylanmoqda. Markaziy Osiyoni Sharq va G'arb, Shimol va Janub o'rtaosidagi to'laqonli tranzit xabiga aylantirishga qaratilgan dastur va loyihalar amalga oshirilmoqda. Natijada keyingi yillarda o'zaro savdo hajmi 4,5 barobar, investitsiyalar esa ikki barobar ko'paydi. Qo'shma korxonalar soni besh barobar ortdi.

Joriy yilda Xitoy — Qirg'iziston — O'zbekiston temir yo'li qurilishi boshlandi. O'zbekiston — Turkmaniston — Eron — Turkiya transport yo'lagi orqali yuk tashish hajmi sezilarli darajada oshdi. Faol va pragmatik tashqi siyosat tufayli O'zbekiston xalqaro siyosatning markazlaridan biriga va global g'oyalarni tashabbuskoriga aylanmoqda.

2016-yilda Prezidentimiz davlat boshqaruviga kelganidan so'ng O'zbekiston tashqi siyosatida mislsiz faollik, o'zgarishlar davri boshlandi, desak mubolag'a emas. Davlatimiz rahbari tashqi siyosiy faoliyatda ustuvor yo'nalish sifatida Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan o'zaro do'stona, yaxshi qo'shniçilik munosabatlari shakllantirishni ustuvor vazifa etib belgiladi. Endilikda nisbatan qisqa davr ichida bu yo'lda amalga oshirilgan ishlarni xalqaro hamjamiyat ham tan ololyapti.

Kengroq nuqtayi nazardan qaraganda, eng muhim ijobiy natija shundan iboratki, beshta davlat xalqaro huquq subyektlari sifatida paydo bo'lib, cheksiz urushlar girdobida qolib ketishdan qochdi. 1990-yillar boshida ayrim tanikli ekspertlar tomonidan Markaziy Osiyoning "bolqonlashuvi" va "afg'onlashuvi" haqida aytilgan dahshatli prognozlar amalga oshmadi.

Bundan sakkiz yil oldin ham chegaralarimiz deyarli to'liq yopilgan, chegara hududlaridagi mojarolar va minalangan dalalar, transport qamallari o'zaro savdo-iqtisodiy munosabatlarmizga soya solardi. Suv resurslari, yaylovlar va suv xo'jaligi obyektlaridan foydalanish masalalari bo'yicha tinimsiz tortishuvlarning ochiq qarama-qarshilikka aylanib ketish xavfi ham yuzaga kelgandi.

O'zbekiston yetakchisining siyosiy irodasi bilan mintaqada hamjihatlik ruhi paydo bo'ldi. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan ishlab chiqilgan yangi yaxlit Tashqi siyosat doktrinasi

Markaziy Osiyo mintaqasi O'zbekiston tashqi siyosiy faoliyatining asosiy ustuvor yo'nalishi etib belgilandi. Qo'shniçilar bilan hech qanday muammo bo'lmasligiga erishish eng muhim maqsad qilib qo'yildi. O'z xavfsizligini boshqa davlatlar xavfsizligi hisobiga mustahkamlashga yo'l qo'ymaslik, ochiqlik, pragmatizm va konstruktivlik, teng huquqlilik, o'zaro hurmat va manfaatlarni hisobga olish tamoyillari mintaqaviy siyosatning konseptual asosiga aylandi.

Ushbu sa'y-harakatlar natijasida so'nggi sakkiz yil ichida Markaziy Osiyo mamlakatlarining jami yalpi ichki mahsuloti 2,5 barobar oshib, 520 milliard dollarga yetdi, tashqi savdo esa ikki barobardan ko'proq o'sib, 253 milliard dollarni tashkil qildi. O'zbekistonning mintaqaviy hamkorlik bilan savdo hajmi 2016-yildagi 2,4 milliard dollardan 2024-yilga kelib 7,2 milliard dollargacha, boshqacha aytganda, uch barobar oshdi, qo'shma korxonalar soni esa 1800 tadan ortdi.

va uning yagona mintaqasi sifatida e'tirof etilishi o'ndan ortiq muhim davlat va birlashmalar ishtirokidagi "Markaziy Osiyo +" muloqoti bilan tasdiqlanmoqda.

O'zbekiston tashabbusi bilan Markaziy Osiyo davlat rahbarlari ishtirokida maslahatlashuv kengashi tashkil etilishi muhim o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Bu orqali yetakchilar bevosita mintaqada iqtisodiyot, davlat chegaralarini aniqlash, xavfsizlik choralari, oziq-ovqat xavfsizligi, migratsiya kabi ko'plab muhim sohalarida hal qilinmay kelayotgan muammolarni yechishga yo'l ochildi.

Mamlakatimiz tashqi siyosatida namoyon bo'layotgan ko'p qirrali faoliyat, shu jumladan, turli davlatlar, xorijiy va mintaqaviy tashkilotlar bilan o'rnatilayotgan diplomatik munosabat, mintaqaviy va xalqaro miqyosdagi dolzarb masalalar bo'yicha ilgari surilayotgan tashabbuslar, olib borilayotgan muloqotlar, birinchi navbatda, xalqimiz tinch, xavfsiz yashashi, erkin faoliyat yuritishi, zamonaviy

siyosatning ijobiy natijasi ekanini bugungi kunda xalqaro hamjamiyat tomonidan keng e'tirof qilinmoqda.

O'zbekiston dunyoning yetakchi davlatlari, jumladan, Xitoy, Rossiya, AQSH, Turkiya, Vengriya, Yaponiya, Hindiston, arab mamlakatlari bilan ikki va ko'p tomonlama munosabatni strategik hamkorlik darajasiga ko'tardi.

Markaziy Osiyo davlatlari va xalqaro manfaatdor tomonlar o'rtaosidagi munosabatlarni haqida gap ketganida, "C5+1" formatining ahamiyati ortib borayotganini qayd etish joiz. U mintaqaviy bo'lmagan ishtirokchilarni hamkorlikka jalb qilgani nuqtayi nazaridan muvaffaqiyatli tashabbusga aylandi.

Ushbu strategik yondashuv mintaqaning siyosiy mavqei, iqtisodiy salohiyatini yuksaltirishga yordam beradi va shu orqali uning kengroq Yevroosiyo kontekstida o'ziga xos qiymatini oshiradi. Dunyo bilan hamkorlikda ko'p qutbli va muvozanatli yondashuv Markaziy Osiyo uchun ustuvor vazifa bo'lib qoladi.

"C5+1" formati mintaqada davlatlari va ularning xorijiy hamkorlari o'rtaosidagi mintazam muloqotning muvaffaqiyatli va dolzarb mexanizmi ekanini isbotladi. Shunday qilib, o'rta va uzoq muddatli istiqbolida mintaqamiz uchun Rossiya, Xitoy, AQSH, G'arb va Osiyo davlatlari bilan munosabatlarda muvozanatni saqlash hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi.

Maqolada hozirgi rivojlanish bosqichida mintaqada davlatlari oldida turgan, uning barqarorligi va rivojlanish sur'atlariga taalluqli masalalar ham qamrab olingan. Xususan, ichki savdoni rivojlantirish, chegaradan o'tish tartib-qoidalarini soddalashtirish va o'zaro investitsiyalar uchun qulay sharoitlar yaratish Markaziy Osiyoda iqtisodiy o'sishning asosiy vazirlaridan biridir.

Davlatimiz rahbari iqtisodiy sohada sanoat hamkorligini faol rivojlantirish, mintaqaviy va mintaqalararo yetkazib berish zanjirlarini yaratish, transchegaraviy savdo zonalarini rivojlantirish, transport-iqtisodiy yo'laklarni kengaytirish hamda transport, energetika, qishloq xo'jaligi va raqamli iqtisodiyot sohalarida qo'shma loyihalarni amalga oshirish zarurligini qayd etadi. Mintaqaviy hamkorlikni chuqurlashtirish, mavjud mexanizmlarni mustahkamlash hamda ularning barqarorligi va amaliy samaradorligini ta'minlash muhimligi urg'ulanadi.

Prezidentimiz alohida qayd etganidek, samarali mintaqaviy institutlarsiz tizimli rivojlanishga erishish va birgalikda qabul qilingan qarorlarning samarali amalga oshirilishini ta'minlash imkonisiz. Ekologik hamkorlikka, jumladan, iqlim o'zgarishiga moslashish, transchegaraviy suv resurslari va bioxilma-xillikni saqlash bo'yicha qo'shma tashabbuslar, shuningdek, "yashil" energetika va past uglerodli texnologiyalarga o'tishga alohida e'tibor qaratilishi lozim. Markaziy Osiyo barqaror ekologik rivojlanish mintaqasiga va atrof-muhitga mas'uliyatli munosabat namunasiga aylanish salohiyatiga ega.

Bundan tashqari, Prezidentimiz Markaziy Osiyo davlatlari o'rtaosida kelishilgan tashqi siyosiy yondashuvlarini ishlab chiqish muhimligini ta'kidladi. Geosiyosiy beqarorlik kuchayib borayotgan va jahon kuch markazlari o'rtaosidagi qarobot o'sib boshlagan sharoitda mintaqaning xalqaro maydondagi pozitsiyalarini muvofiqlashtirish barqarorlikni saqlash va umumiy manfaatlarni himoya qilishning asosiy omiliga aylanmoqda. Shu asosda davlatimiz rahbari asosiy hamkorlik bilan pragmatik aloqalarni o'rnatishda samaradorligini isbotlagan "Markaziy Osiyo +" hamkorlik formatini yanada rivojlantirish zarurligini bildirdi.

Umumanolnganda, O'zbekiston tashqi siyosati, ayniqsa, yangi mintaqaviy diplomatiyasi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va gumanitar sohalaridagi hamkorlikni yanada rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlarini har tomonlama muhokama qilishga imkon beradi. Markaziy Osiyo "yuragi"da joylashgan, mintaqaning barcha davlatlari bilan umumiy chegaraga ega yagona davlat — O'zbekistonning zamonaviy taraqqiyot davrini umumiy rivojlanish asnosida mintaqadan ayro tasavvur qilish qiyin. Shu nuqtayi nazaridan, Prezidentimiz tashabbusi bilan yangi mintaqaviy o'ziga xoslik shakllanmoqda. Markaziy Osiyo mintaqasi tinchlik va farovonlikning yangi davri ostonasida turibdi. O'zbekistonning bu jarayondagi rolini butun dunyo diqqat bilan kuzatmoqda.



taqdiri va birgalikda taraqqiy etish salohiyatini anglab yetgan mamlakatlarimiz yetakchilarining aniq maqsadga qaratilgan sa'y-harakatlari va siyosiy irodasi natijasidir. Ayni paytda bu jarayon o'zaro ishonch muhitida tobora qizg'in tus olayotgani Markaziy Osiyo mamlakatlari xalqlari tomonidan qo'llab-quvvatlanayotgan mintaqaviy hamkorlik keng ko'lamdagi zaruratga aylanganidan dalolatidir".

Endi Markaziy Osiyo Kaspiy va Qora dengizlarni bog'lab, Yevroosiyaning qoq markazida joylashgan energiya va transport nuqtasiga aylanmoqda. O'rta yo'lak orqali jahon bozorlariga to'g'ridan to'g'ri kirish imkoniyatiga ega bo'lgan mintaqada iqtisodiyotlari mustaqil ravishda ta'minot zanjirlari va yangi iqtisodiy reallikni shakllantirmoqda. Ha, ular yirik aktorlar bilan ishtirokimonlik aloqalarini davom ettirmoqda, ammo endi o'z shartlari asosida.

Markaziy Osiyo davlatlari Kavkazorti mamlakatlari, shuningdek, AQSH, Yevropa va Turkiya bilan bo'xjona islohotlarini muvofiqlashtirish, portlarni rivojlantirish, savdo

fan va ta'lim integratsiyasini yo'lga qo'yishga zamin bo'ladi.

Ayniqsa, tashqi siyosatdagi izchillik, har qanday sharoitda davlat manfaatini himoya qilish strategiyasi, ochiqlik tufayli amaliy jihatdan xalqaro ahamiyatga ega natijalarga erishildi. Dunyoning barcha davlatlari bilan o'zaro teng huquqli va manfaatli munosabat davom ettirildi. Tashqi siyosiy kun tartibidagi barcha tendensiyalarni mohirlik bilan anglash va milliy manfaatni hisobga olish asosida, avvalo, yangi mintaqaviy diplomatiya O'zbekistonning qiyofasiga aylandi.

Hozirgi zamonda global miqyosda shiddatli o'zgarishlar yuz bermoqda, xalqaro maydonda kuchlarning yangi nisbati shakllanmoqda. Shu bilan birga, yangi tahlilalar ham paydo bo'lmoqdaki, ayni holat dunyo davlatlarini



Bugungi kunda "Yangi Markaziy Osiyo" konsepsiyasi real voqe'likka aylanmoqda, mintaqada yagona transport-logistika makoni shakllanmoqda.

Jarayon

O‘ZBEKISTON — QOZOG‘ISTON: SUV XO‘JALIGI SOHASIDA HAMKORLIK

Qozog‘iston Sirdaryo oqimi bo‘yicha O‘zbekistondan quyida joylashgan. Ikki davlatni faqat daryoning o‘zi emas, boshqa suv manbalari ham bog‘lab turadi. Jumladan, Sirdaryodan suv oluvchi hamda O‘zbekistonning Toshkent va Sirdaryo viloyatlaridan o‘tuvchi “Do‘stlik” kanali orqali Qozog‘istonning Turkiston viloyati Yettisoy va Maxtaaral tumanlaridagi ekin maydonlari sug‘oriladi.



Zokir ISHPO‘LATOV, suv xo‘jaligi vazirining birinchi o‘rinbosari

Chirchiq daryosi havzasidan “Xaz”, “Xonum” va “Katta Keles” kanallari orqali Qozog‘istonning Turkiston viloyatidagi Sariog‘och, Qazig‘urt tumanlari suv bilan ta‘minlanadi. Shuningdek, qo‘shni davlat hududidagi Chordara suv omboridan mamlakatimiz hududidagi Armasoy suv omboriga suv olish imkoniyati mavjud.

Bugun O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasida transchegaraviy suv resurslaridan birgalikda foydalanish masalalari konstruktiv

Bu yil sug‘orish mavsumida Sirdaryo havzasida suv taqchilligi kuzatildi. O‘zbekiston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Qozog‘iston energetika va suv xo‘jaligi vazirliklari rahbarlari hamkorlikda muammolarni hal etdi. Natijada mavsum har bir mamlakat uchun muvaffaqiyatli o‘tdi.

Bundan tashqari, Qozog‘iston bilan ikki tomonlama aloqalar doirasida davlatlararo suv xo‘jaligi obyektlaridan foydalanish, ish jadvallarini tezkor muvofiqlashtirish va



hal etib kelinmoqda. 2012-yilgi ko‘p tomonlama bitim hamda 1996-yilda tashkil etilgan qo‘shma ishchi guruh faoliyati hamkorlikning huquqiy asosi sifatida xizmat qilmoqda. Mazkur ishchi guruhning maqsadi suv xo‘jaligi sohasidagi barcha yo‘nalish bo‘yicha hamkorlikni chuqurlashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqishdan iborat. O‘tgan davrda qo‘shma ishchi guruhning 12 ta yig‘ilishi o‘tkazildi.

Mamlakatlarimiz hamkorligining muhim yo‘nalishlardan yana biri Tojikiston bilan birga har yili uch tomonlama imzolananidan bayonnomalar orqali Qayroqqum suv omborining yozgi ish rejimini muvofiqlashtirish amaliyotidir. U O‘zbekiston va Qozog‘istonda vegetatsiya davrida suv ta‘minotini yanada yaxshilash hamda mavsumni muvaffaqiyatli o‘tkazishga xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston va Qozog‘iston Tojikistonga sug‘orish va qirg‘oqni mustahkamlash ishlari uchun texnika, uskuna va yoqilg‘i-moylash materiallari shaklida beg‘araz moddiy yordam ko‘rsatadi.

ma‘lumot almashish orqali resurslarni samarali boshqarish masalalari ham ko‘rib chiqilmoqda.

Ikki tomonlama hamkorlikni yanada mustahkamlash uchun O‘zbekiston va Qozog‘iston hukumatlari o‘rtasida transchegaraviy suv obyektlarini hamkorlikda boshqarish va ulardan oqilona foydalanish bo‘yicha kelishuvga erishilgan. Ikki mamlakatning suv xo‘jaligi mutaxassislari o‘rtasida tajriba almashish izchil yo‘lga qo‘yilgan.

Transchegaraviy suv obyektlarini birgalikda boshqarish va ulardan foydalanish to‘g‘risidagi bitim imzolaniishi 15-noyabr kuni ikki davlat yetakchilari o‘rtasida tor doirada bo‘lib o‘tgan muzokaralarda ham olqishlandi.

Umuman olganda, Markaziy Osiyo mintaqasida suvning qadr-qiymati tobora oshib bormoqda. Mana shunday sharoitda barcha qo‘shni mamlakatlarda, xususan, O‘zbekiston va Qozog‘iston transchegaraviy suv resurslaridan birgalikda va samarali foydalanib, xalqlarimiz farovonligini ta‘minlash uchun imkoniyatlarni to‘liq ishga solayotir.

Suv azizmi yoki non? Inson hayot tarzi uchun kerakli bu ikki ne‘matni bir-biridan ayro tushunib bo‘lmaydi. Ammo suv hamma davrlarda ham tiriklik qudrati sifatida qadrlangan. Hayotimizning bir kunini ham suvsiz tasavvur etish mushkul. Suv bor joyda hayot davom etadi, aholi qo‘nim topadi. Bog‘u rog‘lar, infratuzilma tarmoqlari qurilishi ana shu bebaho ne‘matga bog‘liq.

Suvni qadrlash, isrof, iflos qilmaslikka chaqirgan otam bizga bir hikoyani ko‘p bor aytib berardi... Jazirama yoz kunlarida sholini o‘toq qilishga borgan aka-uka jarchining chaqirig‘ini eshitibdi. Emishki, xon elga to‘y berayotganmish. Aka-uka to‘yga borgan ekan, katta el davra olib kurash boshlabdi. Yosh Jaloliddin davraga tushib, barcha polvonlardan ustun kelibdi. G‘olib polvonga yuzlangan xon undan tilagini so‘rabdi. Bu iltifotdan kuch olgan polvon undan bir arava zupchagida (o‘qi sig‘imida) suv berishni so‘rab, yangi yer ochib, dehqonchilik qilish, bog‘u rog‘lar yaratish niyatida ekanini bildiribdi. Xon amri bilan katta o‘zandan suv ajratilib, ariq qazilibdi. Suv kelgach, yangi turar joylar, ekin maydonlari, so‘lim bog‘lar yaratilgan ekan.

Otamning hikoyasi haqiqatga qanchalik to‘g‘ri kelishini bilmayman. Lekin suv har qanday molu davlatdan ziyod ne‘mat bo‘lgani, odamlar uni qanchalik qadrlaganini anglash qiyin emas...

Farg‘ona viloyatida aholining markazlashgan ichimlik suv bilan ta‘minlanganlik darajasi so‘nggi besh yilda 67,1 foizdan 88,5 foizga yetkazildi. Natijada qo‘shimcha 1 million 141,6 ming aholining suv ta‘minoti yaxshilandi. Istiqbolli dasturlar rejasiga ko‘ra, yaqin yillarda aholini toza



ichimlik suv bilan ta‘minlash darajasi 100 foizga yetkaziladi.

Xususan, 2017-2024-yillarda Farg‘ona viloyatida investitsiya dasturi bo‘yicha 691,3 kilometr ichimlik va oqova suv tarmog‘i hamda 117 ta ichimlik va oqova suv inshooti qurildi va rekonstruksiya qilindi. Buning uchun 366,9 milliard so‘m ajratildi.

So‘x tumani viloyatdagi ichimlik suv ta‘minoti eng og‘ir hududlardan biri edi. Aholining toza ichimlik suv bilan ta‘minlanganlik darajasi bor-yo‘g‘i 18,4 foizni tashkil qilardi. Shu bois, tumandagi “Qaqir-Sebzor”, “Oftobro” (Obshirsoy), “Chashma-Demursad”, “Sharqobod”, “Hushyor”, “Hazrat Ali”, “Sarikanda”, “Lenburg” va “G‘aznov” MFYlarda aholini ichimlik suv bilan ta‘minlash loyihasi amalga oshirildi. Uning birinchi bosqichida 140 milliard so‘m o‘zlashtirildi. Natijada 136,3 kilometr ichimlik suv tarmog‘i tortildi, 21 ta quduq, 12 ta nasos, 6 ta suv minorasi o‘rnatildi. Suvni zararsizlantiruvchi 1 ta uskuna, 4 ta transformator, 2 ta suv to‘plash inshooti (rezervuar) qurildi hamda rekonstruksiya qilindi. Loyihaning ikkinchi bosqichida 77 kilometr tarmoq tortildi va 9 ta quduq, 12 ta nasos va suv minorasi, suvni zararsizlantirish uskunasini ishga tushirildi, 9 ta

transformator, 3 ta suv to‘plash inshooti qurilishi va rekonstruksiya yakunlandi. Aholini ichimlik suv bilan ta‘minlash darajasi 80 foizdan oshdi.

— Asosiy e‘tiborni ichimlik va oqova suv tarmog‘i holati og‘ir hududlardagi vaziyatni yaxshilashga qaratdik, — deydi “Farg‘ona suv ta‘minoti” AJ direktori Murodjon Yo‘ldoshev. — Bu ishlar uchun yil boshidan buyon 73,5 milliard so‘m ajratilib, 42,6 kilometr ichimlik, 30,3 kilometr oqova suv tarmog‘i tortildi. 9 ta ichimlik suv inshooti foydalanishga topshirildi. Natijada 20,4 ming aholining ichimlik suv ta‘minoti yaxshilandi. E‘tiborsiz, 20,3 ming aholi yashaydigan hududga ilk bor ichimlik suv tarmog‘i tortildi. Shu orqali viloyat aholisining ichimlik suv bilan ta‘minlanganlik darajasi 8,4 foiz oshdi. Suv uchun sarflanayotgan elektr energiyasini tejash maqsadida 2,3 MVt quvvatga ega quyosh panellari o‘rnatildi. Bu yangilik nafaqat ekologik toza energiyadan foydalanish, balki ehtiyojdan ortiq elektrni sotish imkonini ham berdi.

Aholini ichimlik suv bilan ta‘minlashni yaxshilash, mavjud suv resurslari samaradorligini oshirishda xalqaro moliya institutlari ishtiroki ham ortib bormoqda.

Prezidentimizning 2020-yil 25-noyabrda “Jahon bankining Xalqaro taraqqiyot uyushmasi va Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki ishtirokida “Qishloq infratuzilmasini rivojlantirish” loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori ijrosi doirasida 2022-2024-yillarda viloyatdagi 17 ta aholi yashash punktida ichimlik suv ta‘minotini yaxshilash uchun 24 ta yangi quduq qazish va mavjudlarini ta‘mirlash hamda 249 kilometrqa tarmoq tortish ishlari bajarildi. Xususan, Qo‘shpeta tumani “Qiyqi” mahalla fuqarolar yig‘inida 2 ta tik quduq qazilib, 13,7 kilometr quvvur tortildi.

“Qiyqi” mahalla fuqarolar yig‘ini tuman markazidan olisda joylashgan. O‘tgan asrning yeshiminchii yillarida qurilgan kichik suv tarmog‘i yaroqsiz holga kelgani bois, aksariyat aholi obihayotini boshqa hududlardan tashib kelishga majbur edi. Bu, ayniqsa, qish sovuq‘i, yoz jaziramasiida og‘riqli muammoga aylanardi. Qo‘lbola idishlarda saqlangan suv xususiyatini

yo‘qotib, turli yuqumli kasalliklar tarqalishiga sabab bo‘lgani ham bor gap.

— Bu kunlarni yarim asrdan buyon orzu qilganmiz, — deydi xonadon bekasi Hakimaxon Ahmedova. — Shukur, qiyinchilik ortda qoldi. Mahallamizdagi har bir xonadonga suv keldi. Bu ayollar va bolalar uchun juda katta qulaylik. Chunki erkaklar ishda yurgani tufayli suv tashish ko‘proq bizning zimmamizda qolardi. Endi ortiqcha ovoragarchiliksiz uy yumushini bajarish, sanitariya-gigiyena qoidalriga amal qilish imkoniyati tug‘ildi.

Fransiya taraqqiyot agentligi ishtirokida “Farg‘ona viloyatining Quva va Oltiariq tumanlarida ichimlik suv tizimini yaxshilash” loyihasi tasdiqlangan. Uning doirasida 2025-2029-yillarda yer ostidan suv olish va uni taqsimlash inshooti, magistral hamda kichik tarmoqlar qurish, rekonstruksiya qilish, zamonaviy suv hisoblagichlar o‘rnatish ishlari bajariladi. Shuning hisobiga 500 mingga yaqin aholining ichimlik suv ta‘minoti yaxshilanadi. Osiyo taraqqiyot banki (OTB) ishtirokidagi iqlim o‘zgarishiga moslashgan suv ta‘minoti tizimini yaratish loyihasi asosida Farg‘ona va Pakana suv taqsimlash inshootlari, Farg‘ona — Qirg‘uli magistral ichimlik suv tarmog‘ini qurish, rekonstruksiya qilish, yangi tozalash inshootlari barpo etish ko‘zda tutilgan.

Germaniya taraqqiyot banki ishtirokida “Farg‘ona viloyatining Qo‘qon va Marg‘ilon shaharlarida suv va oqova tizimlarini qurish va rekonstruksiya qilish” loyihasi 400 mingga yaqin aholiga oqova suv xizmatlari ko‘rsatish sifatini yaxshilashga ko‘mak beradi. Shu orqali tozalash inshootlaridagi mavjud muammolarga yechim topilib, atrof-muhit ozodaligini ta‘minlash maqsad qilingan. “O‘zsuva”minot” AJning Germaniya taraqqiyot banki bilan kelishuviga ko‘ra, Qo‘qon va Marg‘ilon shaharlaridagi tarmoqlarni yangilash hamda modernizatsiya qilish uchun 125 million yevrodan ziyod mablag‘ yo‘naltirildi.

Qo‘qon shahri hokimligida Germaniya taraqqiyot banki, Germaniya xalqaro hamkorlik tashkiloti hamda Germaniya Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish vazirligi vakillari bilan yuzmayuz muloqot bo‘lib o‘tdi. Unda Qo‘qon shahrida ichimlik suv va oqova tizimlarini qurish hamda rekonstruksiya qilish loyihasini amalga oshirish masalalari muhokama qilindi.

— Loyiha doirasida 40,7 kilometr ichimlik suv va 58,8 kilometr oqova suv tarmog‘ini qurish hamda rekonstruksiya qilish rejalashtirilgan, — deydi Qo‘qon shahri hokimi o‘rinbosari Aziz Sulaymonov. — Shu maqsadda 3 ta oqova suv nasos stansiyasi qurib, uni tozalash inshooti quvvatini sutkasiga 100 ming kub metrdan 150 ming kub metr gacha oshirish maqsad qilingan. Jarayonda 6 ta quduq, 20 ming kub metr hajmdagi yangi suv rezervuari quriladi hamda 56 mingga hisoblagich o‘rnatiladi.

BMT ma‘lumotlariga ko‘ra, hozir dunyo aholining 2,5 milliardli toza ichimlik suv tanqisligidan aziyat chekmokda. Agar ichimlik suvni asrash masalasiga jiddiy e‘tibor qaratilmasa, muammolarga yechim topilmasa, 20-25 yildan keyin dunyodagi har ikki kishidan biri shu muammoga duch kelishi mumkin. Bu faktlar suvdan oqilona foydalanish, isrof qilmaslik, foydalanilgan suv haqini o‘z vaqtida to‘lash naqadar muhim masala ekanini anglatib turadi.

Rasuljon KAMOLOV, “Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Tahlil

Ishsizlik – barcha ijtimoiy muammolarning asosiy sababchisi. Shu bois, dunyo mamlakatlari hukumatlari ishsizlikni bartaraf etish va shu orqali xalqi farovonligini ta‘minlashga ustuvorlik berayotgani bugungi kun haqiqati. Yangi ish o‘rinlari yaratish nafaqat iqtisodiyotni yaxshilayotgani, balki tinchlik-totuvlik hukmron yurtning barqaror rivojlanayotgani belgisi hamdir.

Bir odamni ishli qilish, jamiyatga moslashib, hayotda o‘z o‘rnini topib, nafaqat o‘ziga, oilasiga, balki davlatga ham foyda keltiradigan shaxsni tayyorlash uzoq va davomiy jarayon. Aslida, butun jamiyat, qolaversa, inson hayoti va sa‘y-harakatlari mana shu qonuniyat ustiga qurilgan.

Davlatimiz rahbari ikki kishini ishli qilgan tadbirkorni boshimga ko‘taraman, deya bejiz ta‘kidlamagan edi. Ayniqsa, endigina mustaqil hayotga kirib kelayotgan yosh avlodni ish bilan ta‘minlash, hayotda o‘z kuchi bilan oyoqqa turib olishi uchun munosib shart-sharoit yaratib berish siyosatimizning ustuvor vazifalaridan biriga aylangan.

Har yili milliy mehnat bozoriga qariyb yarim million ishchi kuchi kirib kelmokda. Ularning bir qismini muayyan kasbni egallagan, yuqori malakali, qo‘lida diplomlari bor kadrlar tashkil etadi. Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, so‘nggi yetti yilda institut va universitetlarga qabul 4,5 barobar oshib, yoshlarning oliy ta‘lim bilan qamrovi 42 foizni tashkil etmoqda. Shu o‘rinda bu boradagi vaziyatni aniq tahlil va dalillar asosida ko‘rib chiqsak.

YOSHLARNI ISH BILAN TA‘MINLASH UMUMMILLIY HARAKATGA AYLANADI

Masalaning nozik va e‘tibor qaratadigan jihat, oliy ta‘limda o‘qitilayotgan kadrlar bilan ish beruvchilar talabi o‘rtasida farq katta. Oqibatda korxonalar chetdan tayyor mutaxassis jalb qilishga majbur bo‘lyapti. Har bir talabani oliyohda o‘qitib, mutaxassis qilib tayyorlash uchun davlat yiliga 25-30 million so‘m sarflayapti. Lekin to‘rt yil umrini sarflab, diplom olgan yoshlarning yarmida ko‘pi oddiy ishlarda band bo‘lmoqda.

So‘nggi yillarda 40 ta oliy o‘quv yurtiga moliyaviy mustaqillik berilgani samarasida iqtisodiyot, huquqshunoslik, tibbiyot, xorijiy tillar va pedagogika yo‘nalishidagi muassasalarning o‘z mablag‘i paydo bo‘ldi. Lekin qishloq xo‘jaligi, veterinariya, muhandislik, aniq va tabiiy fanlar yo‘nalishlari yoshlar uchun jozibador emas.

Tarmoqlar bilan bog‘liqlikni oshirish maqsadida 25 ta muhandislik bilim yurti hamkor korxonalarda 438 ta kafedra ochdi. Masalan, neft-gaz tarmog‘i ta‘lim-ishlab chiqarish klasterlarini tashkil qilgan. Shunday amaliyot natijasida Buxoro texnika universitetining 2 mingdan ziyod bitiruvchisi o‘z mutaxassisligi bo‘yicha ishga joylashgan. Ilmii tadqiqotni tijoratlashtirish 10 karra oshgan.

Yaqin yillarda mamlakatimizda 83 milliard dollarlik yirik loyihalar ishga tushishi rejalashtirilmoqda. Ularning hisobiga sanoatning o‘zida 500 mingga yaqin mutaxassisga ehtiyoj paydo bo‘ladi.

Masalan, Buxoro viloyatida yirik gaz-kimy o majmuasi qurilmoqda. Xorijiy kompaniyalar bilan hamkorlikda Ustyurtda katta loyihalar boshlanyapti.

Bularning barchasi oliy ta‘limni sohalar talabi darajasiga ko‘tarish, kadrlar tayyorlash sifati va yoshlar bandligi qamrovini jadal oshirishni talab etadi.

Endi qiymatli 1 million dollardan, ishchilar soni esa 50 tadan ko‘p bo‘lgan loyihalarining texnik-iqtisodiy asosida sohalar va yo‘nalishlar kesimida mutaxassislarga ehtiyoj ko‘rsatiladi. Bu



orqali mas‘ul vazir va tarmoq rahbari oliy o‘quv yurtiga buyurtma joylashtirib, kadrlarni maqsadli tayyorlashni yo‘lga qo‘yadi.

Bunda rektorlar buyurtma asosida o‘qiyotgan talabalar uchun asosiy fanlardan tashqari qo‘shimcha ta‘lim modullarini joriy qiladi. Ularni o‘qigan talabalarga kredit ballari beriladi. Talabalarining bilimi ikkinchi kursdan keyin ularni ishga olmoqchi bo‘lgan investorlar ishtirokida yillik baholanadi. Bitiruvchi diplom ishini loyihada qo‘yilgan masalalardan kelib chiqib himoya qiladi. Bir so‘z bilan aytganda,

investor talabiga mas bitiruvchilar kafolatlari ishga olinadigan bo‘ladi.

Mehnat munosabatlari xususiy sektor uchun manfaatli tizim yaratilmoqda. Endi bitiruvchini ishga olganlik uchun tadbirkorlik reytingida qo‘shimcha ball beriladi. Oliy ta‘lim muassasasi ularni bo‘sh o‘rin bor korxonaga yo‘naltiradi.

Tijorat banklari orqali 20 ming bitiruvchining biznes boshlashiga ko‘maklashish mo‘ljallanmoqda. Xususan, yoshlar bandligini ta‘minlash uchun Milliy bank va “Aloqabank”ka bu yil 300 million dollar ajratildi.

Banklar mazkur imtiyozli kredit resursining bir qismini bitiruvchilarni ishga olgan korxonalarga ham beradi. Ushbu yangi tizim nafaqat bu yilgi, balki o‘qishni tugatganiga 3 yil bo‘lgan bitiruvchilar uchun ham tatbiq qilinadi.

Joriy oy boshida davlatimiz rahbarining oliy ta‘lim tashkilotlari bitiruvchilarining ishga joylashishiga ko‘maklashish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi yangi qarori qabul qilindi. Mazkur hujjatda keltirilgan yangi tartibga ko‘ra, bitiruvchilarni ishga olgan tadbirkorlarga endilikda imtiyozli kredit beriladi

Yunus BO‘RONOV, “Yangi O‘zbekiston” muxbiri

